

BOBORAHIM MASHRABNING HAYOTI, IJODI, TASAVVUFIY YO‘LI VA ADABIY MEROSI HAQIDA

Namangan viloyat tarixi va davlat muzeyi ilmiy xodimi

X. Yuldasheva

Boborahim Mashrab — XVII–XVIII asrlar o‘zbek adabiyotida tasavvufiy va xalqchilik ruhida ijod qilgan muhim shoir. U o‘z davrida “qalandar”, “sofi”, “ma’shuq” obrazlar orqali ma’naviy izlanishlarni she’riyatga qo‘shgan bo‘lib, bugungi kunda ham uning ijodi o‘zbek lirik she’riyatida mustahkam o‘rin egallagan. Uning hayoti va ijodi haqida tarixiy manbalar cheklangan bo‘lsa-da, xalq og‘zaki hikoyalari, tazkiralar, eski qo‘lyozmalar orqali ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Hayoti va ta’lim yo‘li Boborahim Mashrab (asl ismi — Mulla Vali o‘g‘li Boborahim) taxminan 1640 (yoki 1650) yillarda Namanganda kambag‘al kosib-bo‘zchi Valibobo oilasida dunyoga keldi. Mashrab otadan yosh yetim qoladi, oilaning moddiy qiyinchiliklari yanada ortadi. Onasi ip yigirib tirikchilik o‘tkazadi. Mashrab din asoslari va falsafadan yaxshi xabardor bo‘lgan So‘fi Eshon Mulla Bozor Oxund (xo‘ja Ubaydullo) qo‘lida diniy ta’lim oladi, so‘fiy tariqatlar bo‘yicha bilimni oshiradi, forsiy tilni o‘rganadi. 1665-yilda Qashqarga Ofoq Xo‘ja huzuriga borib bilimni yanada chuqurlashtiradi. So‘ngra Mashrab Samarqand, Xo‘jand, Buxoro kabi shaharlarda kezib yuradi va Qubodiyonda So‘fi Olloyor bilan uchrashib qoladi. Boborahim Mulla Vali (Valibobo) o‘g‘li Mashrab o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotida xalqchilik, ijtimoiylik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid’atta qarshi kurash g‘oyalarining kuchayishida, she’riyat shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o‘rin tutgan so‘z ustalaridan biridir.

Taxminan, 1665-yillarda Mulla Bozor Oxund tavsiyasiga ko‘ra, o‘sha zamonda katta obro‘ga ega bo‘lgan yirik din arbobi qashqarlik Hidoyatullo Ofoq Xo‘ja eshon huzuriga boradi. Shoir adabiy merosidagi diniy mazmun va tasavvufiy yo‘nalish ruhidagi

she'rlarning ko'pchilik qismi Ofoq Xo'ja dargohida va uning targ'ibot saboqlari ta'sirida yaratilgan. Ofoq Xo'ja shaxsiy xislat-fazilatlarini madh etuvchi, uni „pir-u rahbar“ deb tan oluvchi bayt-misralar mujassam bo'lgan g'azal va muxammaslar ham („Koshki“, „O'zum“ radifli g'azallar, „Qolmadi“ radifli muxammas) shu muridlik yillari mahsulidir.

Mashrab taxminan 1672–1673-yillarda Ofoq Xo'ja dargohini tark etadi. Qissalarda qayd etilishicha, bunga Mashrabning piri dargohidagi kanizaklarning biriga ko'ngil qo'ygani, sevib-sevilgani sabab bo'lgan. Ammo Mashrabning og'ir jismoniy jazolanib quvilishi zaminida pir bilan murid o'rtasida jiddiy g'oyaviy ziddiyatlar bo'lgan deyilsa, haqiqatga muvofiq bo'ladi.

Mashrab Qur'oni karimdagi hamma payg'ambarlarni madh etgan

*Alifni dilga jo qilmoqni "Bismilloh" din o'rgandim,
Shohid qonini to'kmakni Kalomullohdin o'rgandim.
O'shal kuni hasht dari Jannatni bir bug'doyga sotmoqni,
Tariqi bandalikni Odamu Havvodin o'rgandim*

*Misli ruhman kim, miyoni jonda yurdum axtarib,
Hamchu Odam jannatu rizvonda yurdum axtarib,
Navha qildim Nuhdek, to'fonda yurdum axtarib,
Chun Xalildek otashi so'zonda yurdum axtarib,
Misli Ismoil kabi qurbonda yurdum axtarib.*

*Maqsud na edi, bilsang agar, ey bani Odam,
Dunyoga yubormak g'arazi lysou Maryam,
Musou hozir birla malak barchalari ham – Xizr
Pur bo'ldi daru dasht – muattar hama olam,
Gesulari yozg'onda sabo shonani ko'rdi*

*Yig'lagin, sho'rida bo'l monandi Nuh,
Yig'lagin to zindasan, abdulamin.
Misli odamdek bu yo'lda yig'lagin.
Yig'la Ibrohimdek Xalildek behudi,
Nurga aylanganmu nori Namrudi,
Yig'lagin to sanga kelgay ma'rifat,
Hamchunon qon yig'la Ismoil sifat.*



Mashrabning ijodi bir necha jihatdan o'ziga xos:

- Tasavvufiy unsur: ishq-i ma'shuq, ruhiy izlanish, ma'naviy poklanish mavzulari. Xalqchilik va ijtimoiy jihat: u xalq dardini, zulm, jaholat, bid'atchilik bilan kurashni she'riyatida aks ettirgan.

- Lirik she'riyatning rivoji: g'azal, muhammas, murabba', mustazod kabi janrlarni qo'llagan. Til va badiiyat jihatdan sodda, jonli, xalq ruhi bilan uyg'un she'rlar yozgan.

Mashrab she'riyati qanday mavzularni o'z ichiga oladi? Masalan: ishq, ma'shuqning yuksakligi, dunyoviy-moddiy azoblar, ruhiy yo'l, ahloqiy poklik. Uning uslubi esa ko'pincha so'z bilan o'yin, satira, humor, so'fiy hayot kechinmalari bilan boyitilgan. Boborahim Mashrab hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar ko'p emas. Uning nomi XVIII—XIX asrlarda tuzilgan ayrim tazkira va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda (Muhammad Bade' Malehonning «Muzakkir ul-as'hob», «Tazkirai Fahmiy», «Musavvai Abdushshukur Ziy», «Tazkirai avliyai Majzub Namangoni») zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda kam, uzuq-yuluq va biribiriga zid. Mashrabning qoddirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat «Devoni Mashrab», «Devonai Mashrab», «Eshoni Mashrab», «Hazrati shoh Mashrab» nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida juda keng tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi aniq belgilangan emas) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchilikda bayon etiladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Kambag'al oilada dunyoga kelgani, dastlab oddiy kasblar bilan shug'ullangani rivoyat qilinadi. U yoshligida tasavvufiy ta'lim olgan, masalan, Namangandagi Mulla Bozor Oxund qo'lida tariqatga kirgani aytiladi. Keyinchalik u Qashqarga borib tasavvuf maktabida xizmat qilgan, so'ngra mustaqil sayohatga chiqib, turli hududlarda ilm olgan va yashagan. Shuningdek, hayotida bir qator afsonaviy voqealar bor: sayohatlar, murshid bilan munosabatlar, so'fiylik yo'lida sinovlar. Bu voqealar uning shoirlik ruhini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatgan.

1653-1711) Boborahim Mullavali o'g'li Mashrab mumtoz adiblarimiz orasida o'zidan keyin alohida va takrorlanmas maktab yaratgan ulug' ijodkorlarimizdan biridir. Uning lirik merosi bilan birga «Mabdayi nur» va «Kimyo» asarlari ham yetib kelgan. Mashrab lirikasining mavzu qamrovi juda keng. Unda olam va odamga aloqador bo'lgan barcha mavzular qamrab olingan deyish mumkin. Ammo ularning barchasi go'yoki ishq-muhabbat mavzusi atrofiga birlashgandek tuyuladi.

“Men oshiqman” (Mashrabning eng mashhur g'azallaridan biri)

Men oshiqman, oshiqman, ishq aro yondim,
Har ne ko'rdim, ishq deb bildim, unda qondim.
Ishq yo'lida tan-u jonimni berurman,
Ishq sirrini har kim bilmas, men bilondim.

Har ne ko'rdim, yuzini Haq deb bildim men,
Har nafasda Haqni zikr etdim, to'ldim men.
Dunyoni deb o'tmayman, men bu yo'ldan,
Ishq aro mastu bexabar bo'ldim men.

Mazmuni: Bu g'azalda Mashrab o'zini “ishq yo'lida yonuvchi” oshiq sifatida tasvirlaydi. “Har ne ko'rdim, yuzini Haq deb bildim” — vahdatul vujud (borliqning birligi) g'oyasining ifodasidir.

Quyidagi asarlarda ham Mashrab haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi:

- „Tazkirat ul-avliyo“ (Majzub Namangoniy),
- „Tazkirai qalandaron“ (Is'hoq Bog'istoni),
- „Muzakkiri as'hob“ (Maleho Samarqandiy),
- „Muntaxab ut-tavorix“ (Hakimxon To'ra),
- „Ansob us-salotin“ (Mirzo Olim).

Mashrab haqida mukammalroq tasavvur hosil qiluvchi manba – „Qissai Mashrab“dir (boshqa nomlari „Shoh Mashrab“, „Devonai Mashrab). Uning ko‘pgina qo‘lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. Ijodiy merosining asosiy jihatlari:

- O‘zbek mumtoz adabiyotida mustazod (qoshma she’r) janrini takomillashtirish.
- Tasavvufiy g‘oyalar: vahdat-ul-vujud (borliqning birdirligi) tushunchasi, so‘z-ishq bilan ma’naviy yo‘lni izlash. Xalq ruhida jonlilik: xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi, oddiy til bilan chuqur fikrni berish san’ati.

Mashrabning ijodi faqat ma’rifiy yoki satirik she’rlar bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi adolatsizlik, bid’at, jaholat bilan kurashish ruhida shakllangan. U shoir sifatida ham, sofi-qalandar sifatida ham xalq ongida mustahkam o‘rin egallagan.

Uning she’rlari bugungi zamonda ham ma’naviy tarbiya, adabiy tadqiqot va estetika jihatdan katta ahamiyatga ega. Mashrab ijodini o‘rganish orqali XVII–XVIII asrlarning ijtimoiy, ma’naviy muhitini ham tushunish mumkin.

Mashrab fors tilida ham bir necha she’riy turlarda yetuk namunalarni yaratgan. Mashrab ijodi keyingi asrlar adabiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Nodira, Huvaydo, Qoriy, Furqat, Hamza kabi shoirlar uning g‘azallariga taxmis va naziralar bog‘lashgan.

Mashrabning mohiyatan inson qadri-sharafi va ma’naviy kamolotini ulug‘lashga, ezgulik va go‘zallikni madh etishga bag‘ishlangan she’riy merosida g‘azal, mustazod, murabba, muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta’rix kabi janr turlarida bitilgan yetuk namunalarni uchratamiz. Ammo Mashrab, avvalo, mohir g‘azalnavis hamda ko‘plab sho‘x va jarangdor mustazodlar, o‘ynoqi va jozibador murabba’ hamda xalq g‘am-u hasratiga hamdardlik hissi bilan yo‘g‘rilgan muxammaslar ijodkori sifatida keng dovrug‘ chiqargan. Mashrabning juda ko‘p g‘azallari xalq qo‘shiqlaridek sodda va jarangdor, jo‘shqin va ta’sirchandir.

Boborahim Mashrab — o‘zbek adabiyotida ma’naviy izlanish, xalqchilik, she’riyat san’ati va tasavvuf ruhini zavqlashgan shoirdir. Uning hayoti rivoyatlar va afsonalarga boy bo‘lsa-da, ijodi aniq tarixiy manbalardan qolganidan ham muhimdir. Uning she’riyati bugungi kunda ham jonlilik, ma’naviy chuqurlik va o‘zligini topish yo‘lidagi izlanishni aks ettiradi. Mashrab qoldirgan badiiy meros hajm va janrlar jihatidan hanuzgacha aniqlangan emas. Ammo bizga hozircha ma’lum asarlarining o‘zi ham Mashrabning favqulodda noyob iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Mashrab ijodi she’riyatning yanada kengroq ijtimoiy mazmun va jangovar ruh kasb etishida, adabiyotdagi xalqchilik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, lirik turlarning takomillashuvi hamda badiiy san’atning kamolotga erishuvida yangi bir yuqori bosqichni tashkil etadi. Uning ijodi bilan tanishish — bu shunchaki adabiyot o‘qish emas, balki ruhni, tilni, xalqning ichki dunyosini tushunishdir. Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g‘oyalar ham, o‘sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohang-ta’kidlari ham sezilarli o‘rin egallaydi. Shoir she’rlarida Allohning mavjudligi, bor-u birligi, barcha jonli va jonsiz mavjudotni yaratganligi uzil-kesil va qat’iy tan olinadi, Xudoning kuch-qudrati, taqdirning o‘zgarmasligi va Mahshar kuni haqidagi ta’limot to‘la-to‘kis qabul qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Axmadjonov Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. T., 2003
2. Ismoilova J. Farg‘ona vodiysida milliy ozodlik kurashlari. T., 2003.
3. Istoriya Uzbekistana. – T.: Fan, 2012.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Tafakkur” ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
6. Moziydan sado”-ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.